

## MAS'ULIYATLILIKNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYANING O'ZIGA XOS MEZONLARI

Muqaddas Soibnazarova -Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi  
Abduxakimov Shoxjaxon- JDPU, Geografiya yo‘nalishi 2- kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaxs mas'uliyati, mas'uliyatli shaxsning sifatlar, shaxsda mas'uyatlilikni shakllanganlik mezonlari haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, kichik mакtab yoshdanoq mas'uliyatlilikni tarbiyalash muammosi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Mas'uliyat, shaxs, shakllantirish, mezon, tavsif, qadriyat, ko‘rsatkich, integratsiya jarayoni.

**Аннотация:** В данной статье дается мнение о личной ответственности, качествах ответственного человека, критериях формирования ответственности у человека, а также освещается проблема воспитания ответственности с младшего школьного возраста.

**Ключевые слова.** Ответственность, личность, формирование, критерий, характеристика, значение, показатель, процесс интегрирования.

**Abstract:** This article gives an opinion on personal responsibility, the qualities of a responsible person, the criteria for the formation of responsibility in a person, and also highlights the problem of educating responsibility from primary school age.

**Key words.** Responsibility, personality, formation, criterion, characteristic, value, indicator, integration process.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida faoliyatlar turlari integratsiyasi asosida mas'uliyatlilikni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish uchun ularga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni, umumiy o‘rtta ta’lim sohasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish qonuniyatlariga tayanish orqali o‘rganishni zarurat, deb hisobladik.

Mas'uliyatli bola intizomliligi, muloqotda ochiqliligi, samimiyligi, adolatliligi, tartibliligi va javobgarligi bilan farqlanadi. Shu bilan birga, madaniyatli, tartibli, notanish holatga nisbatan, begona insonlar bilan uchrashganda oqilona ehtiyyotkorlikni namoyon etadi, jamiyat tomonidan yaratilgan yurish-turish qoidalarini bajarishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas'uliyatlilikning shakllanganligi kundalik hayotdagi holatlarga nisbatan ular o‘zlaridagi ma’naviy qadriyatni, axloqiy mazmunni namoyon etishlarida kuzatiladi. Natija quyidagi shartlar asosida amalga oshishi mumkin, agar o‘quvchi:

-mos ravishda ma’naviy-qadriyatli munosabatlar, axloqiy me’yorlar haqida yetarli bilimga ega bo‘lsa;

-o‘z faoliyatida mas'uliyatlilikning o‘rnini to‘g‘ri anglasa;

-bilim olishga nisbatan mustaqillik va intizomlilikni namoyon etsa, munosabatlarda axloqiy tuyg‘ularga tayansa;

-axloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilsa;

-amaliy tajribani to‘plashga imkon beruvchi turli faoliyatlarga ma'naviy me'yordan foydalanishga tizimli ravishda qo‘shiladi.

"Kichik maktab yoshidagi bolalar mas'uliyatliligi" tushunchasiga anqlik kiritishga harakat qilamiz, mazkur muammo bo‘yicha tadqiqot ishlarini o‘rganib, tahlil qilib, unga o‘z harakatlariga ma'naviy qoidalar pozitsiyasidan refleksiyaga tayyorlik holatini aks ettiruvchi shaxs sifati tarzida ta'rif beramiz.

Mas'uliyatlilikni shaxslik tavsiflari quyidagilardan iborat:

-refleksiya (o‘z-o‘zini nazorat qila olish, o‘z-o‘zini baholay olish, o‘z-o‘zini tahlil qila olish);

-mustaqil holda maqsadga qarab intilish, tashabbuskorlik;

-o‘z faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishga tayyorlik;

-javobgarlik.

Mas'uliyatlilikni ijtimoiy tavsiflari esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-ijtimoiy maqsadlarga egalik;

-tashqi ta'sirlar va motivatsiya;

-subyekt-subyekt munosabatlari.

Ijtimoiy mo‘ljallanganlik murakkab tuzilmani namoyon etib, o‘zida bola uchun ahamiyatli mazmunni ajrata olish funksiyasini amalgaga oshiradigan bilish va emotsiyal komponentlarni jamlaydi. Bu o‘z mohiyatiga ko‘ra bolaning ichki faoliyati bo‘lib, eng avvalo, boshqa insonni idrok etish, uning emotsiyal holati, yaxlit holatini tahlil etish va baholash, uni rivojlana borishidan hayratlanish bilan bog‘liqidir.

Ijtimoiy mo‘ljallar ko‘rsatkichlarini tadqiqotchilar quyidagilarga ajratishadi:

- axloqiy qoidalar va me'yorlar haqidagi bilimlarning mavjudligi;

- bola diqqatini holatning predmet yoki ijtimoiy mazmuniga yo‘naltirilganligi;

- emotsiyal komponentning ifodalanganligi;

-harakatlarning dominanta tipi (uning yordamida bola boshqalar bilan kontaktni amalgaga oshiradi).

Ijtimoiy mo‘ljallar o‘zida bilim va jamiyat hayotidagi hodisalar haqidagi tasavvur larni jamlaydi.

Qadriyatli mo‘ljallar esa bolaning aniq ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Qadriyatli mo‘ljallar - inson intilishlarini predmetli yo‘nalishining umumiy vektorini va belgilangan qadriyatlarni aks ettirib, qadriyatlar tizimini tavsiflaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda qadriyatlarni paydo bo‘lish shartlaridan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- xatti-harakatlar va faoliyatda kattalar tomonidan ahamiyatlilarining ma‘ullanishi;

- bolalarda umumiy tasavvurlar asosida ma'qullangan xatti-harakatlar va faoliyatni ifodalab berishga o'rgatish;

- o'z xatti-harakatlari va faoliyatini tashkil etish usullariga bolani o'rgatish;

- bolani refleksiya usullariga o'rgatish;

- bolani unga yaqin kishilari muammolarini yechishga va u bilan bog'liq turli faoliyat turlariga jalb etish. Boshlang'ich ta'lif jarayonini tashkil qilishga qo'yiladigan zamonaviy talablarni hisobga oladigan bo'lsak, kichik mакtab yoshidagi bolalarda shaxsiy sifatlarni shakllantirish subyekt-subyekt munosabatlari asosida amalga oshishi lozim. "Ma'lumki, bolaning qiziqishlari sinchkovlik shaklida namoyon bo'ladi, ya'ni sinchkovlik asta-sekinlik bilan nisbatan turg'un mazmunga ega bo'ladi va tasavvurlar bilan boshqariladi. Dunyoni anglash, uning sirlarini bilishga intilish shunday qiziqishlardan biridir. Bola bu qiziqishlarini "nega?", "nima uchun?", "qayerdan?", "qanday?" kabi savollar asosida qondirishga harakat qiladi. U dunyo sirlarini, atrof-olam sirlarini tushunishga harakat qila boshlaydi, yangiliklar uni o'ziga jalb etadi. Maktabga o'tish yoshida bolada kattalar ta'siri ostida maktabga borib o'qish qiziqishi yuzaga keladi.

Agarda boshlang'ich ta'lif jarayonidagi mashg'ulotlar qiziqarli bo'lib, o'quvchilarda ijobiy emotsiyonal munosabatni uyg'ota olsa, ular bilim va ko'nikmalarni rejali idrok etishlari mumkin. Bilim olishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish zarurati, bilish vazifikasi bilan qo'zg'atilib bilish faoliyatiga yo'naltiriladi va u mazkur yosh davri uchun xosdir. Shu sababdan ham pedagog o'z oldiga o'quvchilarda bilishga qiziqishni rivojlantirishni, bilish faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirishni maqsad qilib qo'yar ekan, unga nisbatan ijobiy emotsiyonal munosabat sharoitini yaratishi lozim.

Kichik mакtab yoshidagi bolalarda mas'uliyatlilikni tashkil etuvchilaridan biri sifatida faoliyatning tashqi motivatsiyasini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Ko'pchilik tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, qachon holat bola uchun ahamiyat kasb etsa, tasavvur anglanganlik holatiga o'tadi, ya'ni bolada uni yechimini topish uchun ehtiyoj hosil bo'ladi. Boshlang'ich ta'lif jarayonidagi bunday qo'shimcha stimullar bolalar uchun zaruratdir.

Pedagogik va psixologik manbalar tahlili kichik mакtab yoshidagi bolalar faoliyatida ijobiy motivatsiya hosil qilish uchun quyidagi manbalardan foydalanishni maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

- tashqi ta'sirlarning jozibadorligi;

- noaniqlik, mo'jizalarga bo'lgan qiziqish;

- yordam olishga bo'lgan ehtiyoj;

- bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish;

- tabiat va jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablar.

Mas'uliyatlilik tarkibida murakkab integrativ ta'lif sifatida faoliyatni tashkil etilishini ajratib ko'rsatish zarur, deb hisoblaymiz. XXI asrda faoliyatni tashkil eta olish ko'nikmasi ta'lif mazmunining tarkibiy elementi hisoblanadi va u universal ko'nikmalar tarkibiga kiritilgandir. Faoliyatni tashkil etish bu - maqsadga erishish jarayonini o'zi uchun tashkil etish ko'nikmasidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari

o‘z-o‘zini tashkil etishning ba’zi-bir malakalariga ega bo‘ladilar - foydali ishlarni topish, maqsadli faoliyatli bo‘lish kabilardir. Bolalarda “xohlayman” pozitsiyasidan “kerak” pozitsiyasiga o‘tish holatlari shakllanadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, shaxsning mas’uliyatlilik fazilati davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun ijtimoiy zaruriyat hamda pedagogik jarayon oldida turgan kechiktirib bo‘lmas masaladir. Kichik maktab yoshidagi bolalarda mas’uliyatlilikni shakllantirish jarayonining o‘ziga xosligini shaxslik va ijtimoiylik tavsifiy tizimlarida shaxsning sifatlari, deb qarashimiz mumkin. Ular esa o‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyatlilikning shakllanganligini baholash mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J. IV. / Tahrir hay‘ati: T.Mirzayev va b.q. -T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. - 608 b. 537-b.
- 2.Umarova M.X. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi. Ped. fan. nom. .... diss.-T., 2009. - 212-b.
3. Матюхина М.В. Изучение и формирование мотивации учения у младших школьников: Учебное пособие. ВГПИ. - Волгоград, 1983. - С. 168.
4. SOIPNAZAROVA Muqaddas Norpulatovna. (2023). TALABALARING FIKRLASH MADANIYATINI RIVOVLANTIRISH. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 4(4), 96–99.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7844461>
5. Soipnazarova Muqaddas. (2023). JADIDCHILIK MATBUOTIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI. Involta Scientific Journal, 2(2), 70–74. Retrieved from <https://www.involta.uz/index.php/iv/article/view/440>
6. Soibnazarova, M. (2023). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ АСАРЛАРИДА ИНСОНПАРVARЛИК ГОЯЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7518>
7. Soibnazarova, M. (2023). БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИДА МУТАФАККИРЛАРНИНГ ФИКРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7517>
8. Soibnazarova, M. (2023). ЁШЛАРГА МИЛЛИЙ ҚАДИРЯТЛАРИМИЗНИ СИНГДИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7515>
9. Soibnazarova, M. (2022). АБДУЛҲАМИД ЧЎЛПОН МАЪРИФИЙ ФАОЛИЯТИДА МАЪРИФАТПАРVARЛИК, ИНСОНПАРVARЛИК

- ФОЯЛАРИНИ НАМОЁН ЭТИЛИШИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5).
10. Санакулова, З. А., Соибназарова, М. Н., Бойтураева, Н. И., & Юлдашев, Ш. Э. (2016). Психологические условия формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся. Молодой ученый, (8), 1022-1024.
11. Soibnazarova Muqaddas Norgulatovna. (2021). THE PROBLEMS OF HUMANITY IN PHILOSOPHICAL SCIENTIST. Euro-Asia Conferences, 1(1), 478–479. Retrieved from <https://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/15>
12. Soibnazarova, M. (2022). АБДУРАУФ ФИТРАТ АСАРЛАРИНИНГ БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5).
13. Soibnazarova, M. (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ МАҲНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИДА МУТАФАККИРЛАРНИНГ ФИКРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6).
14. Soibnazarova, M. (2022). ILM-MA'RIFAT VA AXLOQ TO'G'RISIDAGIFIKRLAR JALOLIDDIN DAVONIY ASARLARIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(3).
15. Odiljonova, K. (2023). O'QUVCHILARDA SOG'lom tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. Fan va innovatsiyalar , 2 (B4), 267-272.
16. Odiljonova, X. (2024). O'QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O'STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 3-11. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/941>
17. Amonxonova, Y. (2024). "MEN" KONSEPSIYASI INSONING O'ZINI-O'ZI ANGLASHI MASALALARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 44-49. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9513>
18. Amonxonova, Y. (2024). INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA MAKTAB RAHBARINING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA KASBIY KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING XORIJUY MAMLAKATLARDA O'RGANILISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 50-61. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9514>
19. Amonxonova, Y. (2024). INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA INNOVATION BOSHQARUVI HAMDA AXBOROT TA'MINOTI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 12-20. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9412>

- 20.Qarshiboyeva, G., & Odiljonova, X. (2022). ЎҚУВЧИЛАРДА ВАЛЕОЛОГИК БИЛИМНИ ОШИРИБ БОРИШ АСОСЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5).
- 21.Odiljonova, K. (2023). O'QUVCHILARDA SOG'lom tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. Fan va innovatsiyalar , 2 (B4), 267-272.
- 22.Abduaazizkhan, A. Y. (2023). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ETHICAL ATTITUDES IN STUDENTS BASED ON AXIOLOGICAL APPROACHES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 216-220.
- 23.Alibekov, D. (2024). TA'LIM TIZIMINING BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 27-31. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9447>
- 24.Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
- 25.Alibekov D. СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ //Журнал музыки и искусства. – 2021. – Т. 2. – №. 2.
- 26.Farsakhanova, Dilafuz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Архив Научных Публикаций JSPI* (2020).
- 27.Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta'lism-tarbiya borasidagi qarashlari." Журнал музыки и искусства 2.1 (2021).
- 28.Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
- 29.Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
- 30.Alibekov, D. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 168-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9137>
- 31.Amonxonova, Y. (2024). INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA MAKTAB RAHBARINING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA KASBIY KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING XORIJUY MAMLAKATLARDA O'RGANILISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 50-61. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9514>
- 32.Amonxonova, Y. (2024). "MEN" KONSEPSIYASI INSONING O'ZINI-O'ZI ANGLASHI MASALALARI. Журнал Педагогики и психологии в

современном образовании, 4(1), 44-49. извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9513>

33.Odiljonova, X. (2024). “MEN” KONSEPSIYASIGAYONDASHUVLARNING O‘ZIGA XOSLIGI . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 62-70. извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9515>